

ADVOKAT SO'ROVIGA OID JAVOBGARLIKNING AMALDAGI HOLATI VA UNING TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Abduvoxobova Munisa Zafar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15734312>

Annotatsiya: Mazkur tezisda advokat so'rovi bo'yicha javobgarlikning hozirgi amaldagi holati tahlil qilinadi. Advokat so'rovlariga nisbatan qonuniy javobgarlik mexanizmlari, mavjud normativ-huquqiy bazasi va amaliyotdagi muammolar o'rganiladi. Shuningdek, advokat so'rovining samarali va tez olib borilishimi ta'minlash uchun javobgarlik institutini takomillashtirish yo'llari, jumladan, qonunchilikni modernizatsiya qilish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va advokat faoliyatining himoyasini oshirish bo'yicha takliflar keltiriladi. Tezisda huquqiy jarayonlarda adolat va oshkoralikni ta'minlash, advokat faoliyatining mustaqilligini mustahkamlash maqsadida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish muhimligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga yurtimizdagi holat dunyoning rivojlangan davlatlaridagi vaziyatlar bilan tahlil qilinib, bir qancha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: advokat so'rovi, javobgarlik, normativ-huquqiy baza, huquqiy javobgarlik, advokat faoliyati, qonunchilik takomillashtirish, huquqiy himoya, huquqiy jarayon, mustaqillik

“Advokatura to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasi¹ advokatning huquqlariga bag'ishlangan bo'lib, unda advokat yuridik yordam ko'rsatilishi munosabati bilan advokat tomonidan so'ralgan hujjatlarni yoki ularning tasdiqlangan ko'chirma nusxalarini qonunchilikda belgilangan tartibda berishi shart bo'lgan davlat organlari va boshqa organlardan, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar hamda boshqa hujjatlarni so'rash va olish huquqiga egadir. Shuningdek, qonunning 7-moddasi advokat so'roviga bag'ishlangan bo'lib, u jarayon advokatning ishini adolatni va tez ko'rib chiqishini ta'minlaydi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, advokatlik so'rovi yuborishda uning rasmiyligini ta'minlovchi elementlar, ya'ni imzo, guvohnoma, to'liq rekvizitlar va hujjatga ilova qilingan ishonch bildiruvchi shaxs shaxs ma'lumotlari aniq va uzviy shaklda rasmiylashtirilishi shart. D.J. Nurumov ham so'rovni yuborish jarayonida qonun talablariga to'liq rioya qilinmasligi ba'zan rad etish uchun bahona sifatida qo'llanilayotganini ko'rsatadi².

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasida himoyachi jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va taqdim etishga haqli ekanligi qayd etilgan. Advokat ushbu huquqini advokat so'rovini yuborish orqali amalga oshiradi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, advokat so'rovida advokat tomonidan malakali yuridik yordam ko'rsatilishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarning belgilangan tartibda taqdim etilishini talab qilish huquqi mavjud.

Advokat so'rovi bo'yicha shuncha qonunlar, mazkur faoliyatni ta'minlash uchun bir qator normalar mavjud bo'lishiga qaramay, bugungi kunga kelib advokat so'rovining javobgarlik masalasiga unchalik ham e'tibor berishmayapti. Davlat organlari, tashkilotlar advokat so'roviga

¹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/4972044-son; 08.01.2020-y., 03/20/601/0025-son

² Нурумов Д. Ж. Теоретическая и правовая основа адвокатского запроса // Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – № 85. – С. 296–300

qonun bo'yicha 15 kun ichida javob berishlari, shuningek, ular so'ralayotgan axborotga yoki hujjatlarga ega bo'lmasa, davlat organlari, tashkilot-korxonalar o'zlariga murojaat etgan advokatga so'rov olingan sanadan e'tiboran besh kundan kechiktirmay bu haqda xabar qilishi shart.³

Agar yuqorida keltirilgan muddat ichida advokat so'roviga javob berilmasa yoki mazkur holat e'tiborsiz qoldirilsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 197¹-moddasi bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi⁴. Lekin bu kabi javobgarlik juda yengil hisoblanib, ko'p vaziyatlarda javobgarlik holatlari ham qo'llanilmaydi. Bu esa advokaturaning mustqilligiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Boshqa tomondan, advokatning o'zi ham so'rov yuborish huquqini amalga oshirishda qonunga rioya etishi shart. Advokatlik so'rovi orqali olingan axborotdan faqat ishonch bildiruvchi shaxs manfaati yo'lida, advokatlik sirini buzmasdan foydalanilishi kerak. Bu borada huquqiy mas'uliyat ham nazarda tutilgan: axborotdan maqsadsiz yoki ishonch bildiruvchi shaxs rozilgisiz foydalanganlik holatlari advokatning kasbiy odob qoidalarini buzishi deb baholanadi. K.M. Baeva va N.A. Baeva bu holatni javobgarlikning ikki tomonlama tizimi sifatida ko'rib, ham so'rovga javob beruvchi, ham so'rov yuboruvchi tomonning mas'uliyatini normativ jihatdan aniqlashtirish zarurligini ta'kidlaydilar⁵.

Xalqaro huquqda advokat so'rovi va unga oid javobgarlik masalalariga to'xtaladigan bo'lsak, davlatlar o'rtasidagi sud-huquqiy yordamni tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar va konvensiyalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, Yevropa Ittifoqining 2000-yildagi "Yevropa Ittifoqi doirasida sud yordamiga doir Konvensiya"si advokatlarning boshqa davlatlardagi sudlarga murojaat qilish tartibini belgilaydi. Bu hujjat, advokatlarning vakolatlarini hech bir to'siqsiz amalga oshirishiga imkon yaratadi, shu bilan birga, davlatlar o'rtasida sud-huquqiy yordamni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Fransiya va Germaniya kabi davlatlarda advokat so'rovi ko'pincha sudning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bu, advokatlarning boshqa davlatlardagi sudlarga murojaat qilishda muayyan cheklovlar mavjudligini ko'rsatadi. Biroq, bu cheklovlar, advokatlarning transchegaraviy faoliyatini tartibga solish va davlat suverenitetini hurmat qilish maqsadida belgilangan.

Shu o'rinda mavjud holatlarni o'rganib chiqqan holda ba'zi bir takliflar ko'rib chiqilishi kerak:

Birinchidan, advokat so'rovlariga o'z vaqtida javob bermaslik uchun aniq va qat'iy javobgarlik choralari belgilansin. Ma'muriy javobgarlik haqidagi qonunlarga alohida band kiritilib, muayyan muddatda javob bermagan mansabdor shaxslarga nisbatan jarima yoki intizomiy choralar qo'llanilishi lozim.

Ikkinchidan, advokatlarga taqdim etilishi kerak bo'lgan axborot turlari qonun bilan aniq tasniflanishi lozim (masalan: sud hujjatlari, tergov materiallari, byudjet hujjatlari, tibbiy ma'lumotnomalar va hokazo).

Uchinchidan, advokat so'rovlariga javob bermagan mansabdor shaxslar ustidan shikoyat qilish bo'yicha **maxsus monitoring organi** yoki Ombudsman bilan hamkorlikda yo'lga qo'yiladigan mexanizm ishlab chiqish kerak.

³ O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni.: 27.12.1996 yildagi 349-I-son

⁴ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.: 01.04.1995

⁵ Баева Н. А., Баева К. М. Получение доказательственной информации адвокатом в уголовном судопроизводстве // Закон и право. – 2022. – № 2. – С. 123–128

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/4972044-son; 08.01.2020-y., 03/20/601/0025-son
2. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni.: 27.12.1996 yildagi 349-I-son
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.: 01.04.1995
4. Матмуротов А. Р. Адвокат сўрови: муаммолар ва уларнинг ечимлари // Илмий амалий ҳуқуқий тадқиқотлар журнали. – 2024. – № 1. – С. 45–51
5. Нурумов Д. Ж. Теоретическая и правовая основа адвокатского запроса // Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – № 8S. – С. 296–300
6. Баева Н. А., Баева К. М. Получение доказательственной информации адвокатом в уголовном судопроизводстве // Закон и право. – 2022. – № 2. – С. 123–128